

PSIXOLOGIK XIZMAT ASOSLARI FANINING KELIB CHIQISH.

*Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Psixologiya” kafedrasи o’qituvchisi
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna
Pedagogika va Psixologiya fakulteti
2-bosqich talabasi:
Pazilova Luiza Serik qizi*

Annotasiya: Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish, rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan. XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Kalit so'zlar: Psixologiya, tarix, psixologik salohiyat, Dolzarb, psixik taraqqiyot, faoliyat.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning ne chog'lik to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Prezidentimiz o'zining O'zbekistonning bugungi istiqlol va istiqbol yo'lini ifodalovchi boshqa qator ma'ruzalari, asarlarida ham iqtisodiyot bilan ma'naviyat, inson ruhiyatining barkamolligi, hayotning o'zaro ajralmas, bir-birini to'ldiradigan, o'zaro ta'sir, aks ta'sir etadigan muhim omillari ekanligini, ayni paytda bugungi iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni, ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini ta'minlashning muqarrar ijtimoiy zarurat ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Bu vazifalarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo'ygan talablar asosida qaror toptirishga ko'maklashuvchi psixologik xizmat jarayonining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Psixologik xizmatning mazmuni:

- a) psixoprofilaktika,
- b) psixologik maorif va ma'rifat,
- v) psixodiagnostika,
- g) psixik rivojlantirish va psixokorrekteviya,
- d) psixologik konsul'tatsiya.

Psixologik xizmat uch asosiy bo'g'indan tuzilgan:

- 1) Aniq o'quv muassasasida ishlaydigan bolalar amaliy psixologi.
- 2) Tuman xalq ta'limi qoshidagi tashhis markazi.
- 3) Respublika kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashhis markazi.

Psixologik xizmat metodlari turli tuman bo'lishi mumkin:

- a) xalq ta'limi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi xodimlari, o'quvchilar, talabalar bilan ma'ruzalar turkumi, aholining psixologik madaniyatini o'stirish maqsadida trening mashg'ulotlari o'tkazish;
- b) ilmiy ommabop adabiyotlarni yaratish va ularni tarqatish;
- v) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar;
- g) psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar);
- d) psixologik maslahat berish;
- e) psixologik konsiliumlar o'tkazish;
- j) ta'lim va tarbiya beruvchi dasturlardan foydalanib psixodrama, psixokorrektzion treninglarni amalga oshirish;
- z) psixologik tadqiqot ob'ektining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv dasturi, o'quv tarbiya rejalarini tahlil qilish va hokazolar.

Psixologik xizmat fani shakllanishining nazariy-ilmiy metodologik asoslari umumiy psixologiya fani shakllanishi bilan bog'liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat fani dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazaridan, psixologik xizmat fani haqidagi dastlabki mushohadalar eramizdan oldingi davr mutafakkirlari Fales (er.o.VII-VI asrlar), Aflatun (er.o.V-IV asrlar), Anaksimon (er.o. V asr), Geraklit (er.o. VI-V asrlar), Demokrit (er.o. V-IV asrlar), Epikur (er.o. V-IV asrlar) Galen (er.o. II asr) kabilar nazarida o'sha davr uchun muayyan ma'noda ilmiylik kashf etgan mulohazalarni alohida ta'kidlash joiz. Qadimgi dunyoning bir muncha keyingi rivojlanish davrlarida ham tibbiyot, fiziologiya, fizika, mantiq kabi fanlar tizimidagi yangi kashfiyotlar inson psixologik holatini adekvat tushunish va tavsif etish bo'yicha ilmiy yondashuvlarga asos solindi. Ayni paytda frantsuz olimi R. Dekard (1596-1650) tomonidan individ xulq atvorining reflektorlik tabiatiga xos jihatlarning ilk bor kashf etilishi va uning keyinchalik rus olimlari I.S. Sechenov va I.P. Pavlovlar tomonidan o'ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta'sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Psixologik xizmat AQShda 1800 yillardan boshlab rivojiana boshladi. AQShning birinchi amaliyotchi psixologlari o'z-o'zini tarbiyalash muammosini o'rgangan eksperimental psixologlar edilar. Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot koeffitsentini aniqlash keng tarqalib, keyinchalik «Gaydens» xizmatining rivojlanishiga olib keldi. Fransuz maktab psixologiyasining otasi Alfred Bine bo'lib, u bu sohada 1894 yildan boshlab ish boshlagan. 1905 yilda



Fransiya ta'lim vazirligi Binega umumiy dastur bo'yicha o'qiy olmaydigan bolalarni tekshirish muammosi bilan murojaat qiladi va shu tariqa aqliy taraqqiyotda orqada qolgan bolalarni ajratadigan Bine-Simon testi yaratildi. 1990 yilda Fransiyada maktab psixologik xizmati tashkil etiladi. 1970 yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etadi. Bunday guruhlar maktab psixologiyasi bo'yicha bir mutaxassis, ta'lim psixologiyasi bo'yicha bir mutaxassis, psixomotor rivojlanish bo'yicha bir mutaxassisni o'z ichiga oladi. Bunday brigada 800-1000 o'quvchiga xizmat qiladi, bir maktabda joylashib, bir necha maktabga xizmat qilishi mumkin. 1985 yilda Fransiya pedagogik psixologlarining funksiyalari aniqlab berildi. Pedagogik psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qilishi kerak, bunda u bu ishlarga o'qituvchilarni va ota-onalarni ham jalg etishi mumkin. Pedagogik psixolog o'z ishida lozim topsa, maktab va oila tarbiyasiga qarshi chiqishi mumkin, deb maxsus ta'kidlangan. Ko'pchilik Sharqiy Yevropa mamlakatlarida maktab psixologik xizmati tuman yoki viloyat psixologik-pedagogik markazlari shaklida tashkil etilgan. Masalan, 1980 yilda Chexoslavakiyada tarbiya masalalari bo'yicha modda maktab to'g'risidagi qonunga kiritildi. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni - sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash, shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish, kasb tanlash muammolaridir. Chexoslavakiyadagi psixolog maslahatchining asosiy funksiyasi psixodiagnostik faoliyatdan iboratdir. Sobiq sovet psixologiyasida bolalar tarbiyasi va ta'limida psixologiyadan foydalanish borasida urinishlar pedologiya doirasida vujudga keldi. Pedologiya rivojlanayotgan va o'sayotgan shaxsning barcha biologik va ijtimoiy xususiyatlarini qamrab oluvchi fandir. 1936 yilda pedologik qarashlarini to'xtatish haqida qaror qabul qilindi, shu bilan birga rus psixologlari amalga oshirayotgan bola psixologiyasidagi ijobiy izlanishlar ham to'xtab qoldi. Faqat 60 yillarning oxiriga kelib, psixologlarning maktab ishida amaliy ishtirok etishi qayta tiklandi. Eston psixologlari «tarbiyasi qiyin» o'smirlar uchun maxsus maktablarda ish olib bordilar. 1984 yilda Moskvada SSSR FA psixologiya institutida «SSSR da psixologik xizmat muammolari bo'yicha I umumittifoq anjumani bo'lib o'tdi.

Anjumanda maktabda psixologik xizmat seksiyasi ham ish olib bordi. Sobiq sovet Ittifoqida birinchi bo'lib Estoniyada 1975 yilda maktabda psixologik xizmat tashkil etildi (rahbari X.I.Liymets, Yu.L. bo'lib, tarbiyasi qiyin o'smirlar uchun maxsus maktablarda ish olib bordilar). Rossiyada 1982 yilda maktablarda psixolog shtati ochildi. Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga ulkan ulush qo'shgan, u ushbu mavzuda doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan va bir qancha asarlar muallifidir. 1989 yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sababli Nizomiy nomli TDPUsda amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida M.G.Davletshin, E.G.G'oziev, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, V.M.Karimova,

Sh.R.Baratov,E.N.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nishanova, N.S.Safoev, F.I.Haydarov, S.X.Jalilova va boshqalar hissa qo'shganlar. 1998 yilda Sh.R.Baratov "Ta'lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.Psixologik xizmat fani shakllanishining nazariy-ilmiy metodologik asoslari umumiyligi psixologiya fani shakllanishi bilan bog'liq uzoq tarixiy ildizlarga borib taqaladi. Albatta, psixologik xizmat fani dastlabki psixologik tushunchalarning paydo bo'lish va rivojlanish davrlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazaridan, psixologik xizmat fani haqidagi dastlabki mushohadalar eramizdan oldingi davr mutafakkirlari Fales (er.o.VII-VI asrlar), Aflatun (er.o.V-IV asrlar), Anaksimon (er.o. V asr), Geraklit (er.o. VI-V asrlar), Demokrit (er.o. V-IV asrlar), Epikur (er.o.V-IV asrlar) Galen (er.o. II asr) kabilar nazarida o'sha davr uchun muayyan ma'noda ilmiylik kashf etgan mulohazalarni alohida ta'kidlash joiz.Qadimgi dunyoning bir munkacha keyingi rivojlanish davrlarida ham tibbiyat, fiziologiya, fizika, mantiq kabi fanlar tizimidagi yangi kashfiyotlar inson psixologik holatini adekvat tushunish va tavsif etish bo'yicha ilmiy yondashuvlarga asos solindi.Ayni paytda frantsuz olimi R.Dekard (1596-1650) tomonidan individ xulq atvorining reflektorlik tabiatiga xos jihatlarning ilk bor kashf etilishi va uning keyinchalik rus olimlari I.S.Sechenov va I.P.Pavlovlar tomonidan o'ziga xos ilmiy asoslar bilan rivojlantirilishi insonning psixologik ta'sir doiralarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.Bundan tashqari eramizdan oldingi II asrda rimlik vrach Galen fiziologiya va tibbiyotning yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik negizi haqidagi tasavvurlarni boyitdi va ong tushunchasiga yaqinlashib keldi. U diqkat, xotira, mulohaza ishtirok etadigan harakatlarning kishi, masalan, uyqusida bajaradigan harakatlardan chegaralanishni ko'rsatib beradi. Keyinchalik bu nuqtai nazar psixologik xizmat fani tarixida introspeksionizm nomi bilan atala boshlandi.

XVII asr biologik va psixologik bilimlar taraqqiyotida yangi davrni ochib berdi. Chunonchi, Frantsuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtiyoriy) tabiatga egaligining kashf etilishi ana shu g'oya bilan uzviy bog'langandir. Olim yurakdagi mushaklarning ishlashi qon aylanishining ichki mexanikasi bilan boshqarib turilgani kabi xulq-atvorning hamma darajalaridagi boshqa mushaklarning ishlashi ham xuddi soat mexanizmida millarining aylanishiga qiyoslovchi psixologik taxminni ilgari surdi. Zero, Dekart mushaklar tashqi turkilarga ruhning hech qanday aralashuvisiz, asab tizimining tuzilishi e'tibori bilan ham javob qaytarishga qodirligini ham isbotlab berdi. Binobarin, Dekart o'zining «asab mashinasi» g'oyasi bilan sezgilar, assotsiatsiyalar, kuchli ehtiroslar qanday yuzaga chiqishi mumkinligini tushuntirib berdi.Asta-sekinlik bilan psixologik xizmat fani tarixida onglilik va ongsizlik masalalariga jiddiy oydinliklar kiritish tendentsiyasi vujudga keldi. Jumladan, fan tarixida birinchi bo'lib ongsizlik psixikasi haqidagi

tushunchani ilgari surgan XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716)ning ta'limotiga matematika, jumladan, integral va differentsiyal hisoblar kashf etilishi ta'sir etgan edi. Unga ko'ra psixik hayot manzarasining arifmetik yig'indi tariqasida emas, balki integral tarzida namoyon etilishi tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g'oyasiga tayangan holda pertseptsiya (bevosita ongsiz idrok) ni appertseptsiya (diqqat va xotirani o'z ichiga olgan anglanilgan idrok) dan farqlagan edi. Shu bilan birga u psixologiyaga juda ko'p yangiliklarni, eng avvalo, psixikaning faolligi, tabiatni va uzluksiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko'rinishlari o'rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g'oyani olib kirish bilan insonga psixologik xizmat ko'rsatish tizimiga yangicha qarashlar mavjudligini ko'rsatdi. Bundan tashqari ingliz faylasufi, pedagogi va empirik psixologiya asoschisi Jon Lokk (1632-1704) barcha bilimlarning tajribadan kelib chikishi haqidagi psixologik qoidani ilgari surdi. Chunki u ruhiy hayotning muayyan omillari, oddiy hodisalardan murakkab hodisalarga o'tish yo'llarini ilmiy jihatdan izohlab berishga urindi. Lokkning fikricha, tajriba-ning ikkita manbai bor: biri tashqi sezgi a'zolarining faoliyati (tashqi tajriba) va ikkinchisi o'zining xususiy ishini idrok etuvchi aqlning ichki faoliyati (ichki tajriba)dir. Kishi hech qanday g'oyalarga ega bo'lмаган holda dunyoga keladi. Uning ruhi — «toza taxta» (tabula rasa) bo'lib, keyinchalik unga tajriba yozuvlari bitiladi. Tajriba oddiy va murakkab g'oyalardan tarkib topadi. Bu g'oyalari yo sezgilardan, yo ichki idrok (refleksiya)lardan hosil bo'ladi. Ikkinci holatda ong real narsalarga emas, balki o'z xususiy mahsuliga yo'naltirilib, o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. Jon Lokkning refleksiya ta'limoti («refleks» tushunchasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak) kishi psixologik dalillarni (fizika dalillaridan farqli o'laroq) introspektiv tarzda bilib oladi, degan taxminga asoslangan edi.

Foydalangan adabiyotlar.

1. Vasila Karimova "Psixologiya ", Toshkent, 2000.
2. Foziev E. "Umumiyl Psixologiya " 1-kitob, Toshkent, 2004
3. "Psixologiya atlasi" M.Gomezo tahririda Moskva 1986
4. M.G.Davletshin. "Psixologiya", Izohli lug'ati, Toshkent 1998
5. M.G.Davletshin. «Umumiyl Psixologiya», Toshkent, 2002.
6. Foziev E. «Umumiyl Psixologiya», 2 –kitob, Toshkent, 2004.